

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 636 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich6 Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOIYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B. Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGSI ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQUISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otayor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNİ VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
Uzakova Umida Ruziyevna	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O'QITUVCHI-TALABA NISBATI O'RTASIDAGI IQTISODIY BOG'LIQLIK	502
Dusanov Salim Mamarasulovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
Рашидов Авазбек Рахимович	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
Radjapova Latofat Sardorovna	
DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
Д.М. Жураханов	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI	537
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich	
DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
Aipova Iroda Ikramovna	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI	554
Toshov Mirzabek Hakimovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI	560
Nurxo'jayeva Xilola Hakimxo'jayevna	
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	568
Teshaboyev To'liqin Zakirovich, Muradov Botir Xayyat	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE'MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg'unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o'g'li	
SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich	



SUN'IY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI	591
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	
IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS	596
Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich	
INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS	602
Otjanova Shahnoza Shuhratovna	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI	608
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI	613
Kenjayev M.G'.	
MAJBURIYATLAR AUDITINING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	618
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	623
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI TAHLILI	630
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI TAHLILI

Djurayeva Lola Abdugabbarovna

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-0131-8719>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari tahlil qilinib, Majburiy ijro byurosining tadbirkorlik muhitining barqarorligi va huquqiy himoyasini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash nafaqat moliyaviy resurslar ajratish, balki mulkiy huquqlarni ishonchli himoya qilish, shartnoma intizomini mustahkamlash hamda sud qarorlarining samarali va o'z vaqtida ijrosini ta'minlash orqali amalga oshirilishi ilmiy asoslangan.

Shuningdek, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va Yaponiya davlatlarining ilg'or tajribasi asosida qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Surxondaryo viloyati statistik ma'lumotlari asosida ijro hujjatlari va undirilgan mablag'lar dinamikasi baholanib, ijro tizimining izchil rivojlanish tendensiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalari ijro tizimi samaradorligining oshib borishi tadbirkorlik faoliyati barqarorligini mustahkamlash, biznes yuritish ishonchligini oshirish hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishda muhim institutsional omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: institutsional qo'llab-quvvatlash, kichik biznes, Majburiy ijro byurosi, shartnoma intizomi, sud qarorlari ijrosi, tadbirkorlik muhiti, investitsiyaviy jozibadorlik.

Abstract. This article analyzes the institutional mechanisms for supporting small business entities and highlights the role of the Bureau of Compulsory Enforcement in ensuring the stability and legal protection of the entrepreneurial environment. It is substantiated that state support should be implemented not only through the provision of financial resources but also through ensuring reliable protection of property rights, strengthening contractual discipline, and guaranteeing the effective and timely enforcement of court decisions.

A comparative analysis was conducted based on the advanced experience of the United Kingdom, Germany, the United States, and Japan. Using statistical data from the Surkhondaryo region, the dynamics of enforcement documents and recovered funds were evaluated, revealing positive trends in the development of the enforcement system.

The research findings demonstrate that improving the efficiency of the enforcement system is an important institutional factor in strengthening business stability, increasing confidence in entrepreneurial activity, and enhancing the investment attractiveness of regions.

Keywords: institutional support, small business, Bureau of Compulsory Enforcement, contractual discipline, enforcement of court decisions, business environment, investment attractiveness.

Аннотация. В данной статье проанализированы институциональные механизмы поддержки субъектов малого бизнеса и раскрыта роль Бюро принудительного исполнения в обеспечении стабильности и правовой защищённости предпринимательской среды. Обосновано, что государственная поддержка должна осуществляться не только посредством предоставления финансовых ресурсов, но и через надёжную защиту имущественных прав, укрепление договорной дисциплины и обеспечение эффективного и своевременного исполнения судебных решений.



Проведён сравнительный анализ на основе передового опыта Великобритании, Германии, США и Японии. На основе статистических данных Сурхандарьинской области оценена динамика исполнительных документов и взысканных средств, что позволило выявить положительные тенденции развития системы исполнения.

Результаты исследования показывают, что повышение эффективности системы исполнения является важным институциональным фактором укрепления устойчивости бизнеса, повышения доверия к предпринимательской деятельности и роста инвестиционной привлекательности регионов.

Ключевые слова: институциональная поддержка, малый бизнес, Бюро принудительного исполнения, договорная дисциплина, исполнение судебных решений, предпринимательская среда, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, odatda, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar yoki grantlar orqali amalga oshiriladi, degan qarash keng tarqalgan. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri — bu mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasi va shartnoma intizomining samarali ta'minlanishidir. Shu nuqtai nazardan, Majburiy ijro byurosi faoliyati tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning bevosita moliyaviy emas, balki muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Majburiy ijro byurosining asosiy vazifasi sud hujjatlari va vakolatli organlar qarorlarining to'liq hamda o'z vaqtida ijrosini ta'minlashdan iborat. Ushbu jarayonda tadbirkorlik subyektlari foydasiga qabul qilingan qarorlarning amaliy natijadorligi ta'minlanadi. Xususan, kontragent tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan holatlarda sud qarori asosida qarzdorlikni undirish imkoniyati yaratiladi. Mazkur qarorlarning amalda ijro etilishi esa tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiy ijro byurosi aynan shu bosqichda tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini himoya qilib, debitor qarzlarni undirish orqali ularning aylanma mablag'larini tiklashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayon tadbirkorlik muhitining umumiy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida to'lov intizomining mustahkamligi investitsiya faolligini rag'batlantiradi, ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi. Majburiy ijro byurosining samarali faoliyati esa shartnoma madaniyatini mustahkamlash, xo'jalik munosabatlarida mas'uliyat darajasini oshirish va tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun qulay institutsional muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning institutsional yordami va uning firma faoliyatidagi "entrepreneurial orientation"ga ta'siri zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Xiao va hammualiflari Koreya tajribasi misolida davlat tomonidan ko'rsatilgan institutsional qo'llab-quvvatlash (policy support) firmalarning entrepreneurial orientation, ya'ni innovatsion faollik, tavakkalchilik va proaktivlik darajasini oshirishga xizmat qilishini empirik jihatdan asoslab bergan (Xiao et al., 2022). Mazkur yondashuv institutsional qo'llab-quvvatlashni oddiy resurs yoki imtiyoz sifatida emas, balki firma strategiyasi va tashqi muhit o'rtasidagi muhim bog'lovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, institutsional qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik faolligini bevosita emas, balki firmaning strategik yo'nalishi orqali rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Stephan, Uhlaner va Stride (2015) tomonidan 26 davlat misolida olib borilgan tadqiqot natijalari formal institutlar (hukumat siyosati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari) hamda noformal institutlar (madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar) birgalikda ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy xulosalar institutsional qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etishda kompleks yondashuv, ya'ni huquqiy baza, infratuzilma, madaniy va ijtimoiy kapital uyg'unligini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi.

Li va Atuahene-Gima (2001) Xitoydagi yuqori texnologiyali korxonalar faoliyatini o'rganib, institutsional qo'llab-quvvatlash innovatsion strategiya va korxona samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiruvchi muhim sharoit yaratuvchi omil ekanini aniqlagan. Ularning fikricha, institutsional muhit innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda strategiya va natija o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Leontieva, Ilin va Sizova (2018) kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilib, institutsional yordam vositalari korxonaning rivojlanish bosqichlariga mos ravishda differensial yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, Sofia (2021) tadqiqotida institutsional qo'llab-quvvatlash tizimi moliyaviy instrumentlar bilan bir qatorda normativ-huquqiy baza, infratuzilma, maslahat va axborot xizmatlarini ham o'z ichiga olishi zarurligi ilmiy asoslangan.

Mahmudova (2020) tadqiqotlarida esa tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional mexanizmlar, jumladan, moliyalashtirish, tashkiliy qo'llab-quvvatlash va davlat dasturlarining ahamiyati yuqori ekani ko'rsatib o'tilgan. Xalqaro moliya institutlari, xususan IFIT (2022) hisobotida O'zbekistonda tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishda IT-Park kabi institutlarning roli alohida ta'kidlanib, ular biznes subyektlariga moliyaviy resurslar bilan bir qatorda infratuzilma, maslahat, tarmoq integratsiyasi va innovatsion platformalar taqdim etishi qayd etilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni institutsional qo'llab-quvvatlash tizimi formal qoidalar va ularning samarali ijrosi, infratuzilma va xizmatlar, madaniy va ijtimoiy kapital hamda tadbirkorlik ekotizimi institutlarining o'zaro uyg'un faoliyati orqali biznes faoliyatining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi (Stephan et al., 2015; Xiao et al., 2022; Leontieva et al., 2018).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarini institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy asosda baholash maqsadida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usuli orqali majburiy ijro tizimining nazariy asoslari hamda uning tadbirkorlik muhitiga ta'siri o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston majburiy ijro tizimi rivojlangan davlatlar, jumladan Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va Yaponiya tajribasi bilan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Majburiy ijro byurosi vakolatlarining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001-yildagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi 258-II-son Qonuni¹, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlarida belgilab berilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda Majburiy ijro byurosi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish vazifasi mustahkamlangan. Bu esa ijro tizimini nafaqat huquqiy tartibga solish mexanizmi, balki iqtisodiy munosabatlar barqarorligini ta'minlovchi muhim institutsional omil sifatida baholash imkonini beradi.

Majburiy ijro byurosining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi muhim jihatlaridan biri — ijro jarayonlarini raqamlashtirish va elektron o'zaro hamkorlik tizimlarining joriy etilganidir. Yuridik shaxslar ijro ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda olish, qarorlar bilan masofadan tanishish va ijro jarayonini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu yondashuv ma'muriy jarayonlarni soddalashtiradi, vaqt va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi hamda tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ijro jarayonida qonunchilik asosida muvozanatli yondashuv mexanizmlari ham qo'llaniladi. Xususan, qarzdor ham tadbirkorlik subyekti bo'lgan holatlarda to'lovlarni bo'lib-bo'lib amalga oshirish yoki muddatini uzaytirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa bir tadbirkor manfaatlarini tiklash bilan bir qatorda, boshqa tadbirkorlik subyektlarining faoliyat barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlar ham Majburiy ijro byurosi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, yillar davomida tadbirkorlik subyektlari foydasiga undirilgan mablag'lar hajmining izchil ortib borishi sud orqali himoya qilingan biznes manfaatlarining amalda tiklanayotganini ko'rsatadi. Bu esa Majburiy ijro byurosini tadbirkorlik infratuzilmasining muhim institutsional elementi sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Majburiy ijro byurosi tadbirkorlikni bevosita moliyaviy rag'batlantiruvchi organ hisoblanmasa-da, mulkiy huquqlar daxlsizligini ta'minlash, shartnoma intizomini mustahkamlash va sud himoyasini real iqtisodiy natijaga aylantirish orqali tadbirkorlik muhitini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, uning faoliyati investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, iqtisodiy munosabatlarda ishonchni mustahkamlash va barqaror biznes muhitini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma intizomi va sud qarorlarining samarali ijro etilishi tadbirkorlik muhitining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy institutsional omillardan biri hisoblanadi. Samarali ijro mexanizmi qarzdorlik majburiyatlarini bajarish, debitor qarzlarni undirish va biznes subyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda Majburiy ijro byurosi aynan shu vazifalarni amalga oshiruvchi alohida institutsional tuzilma sifatida faoliyat yuritadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham ijro tizimining iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, Buyuk Britaniyada sud qarorlarini ijro etish bailiff va High Court Enforcement Officers orqali amalga oshiriladi. Mazkur tizim tezkor ijro mexanizmlari orqali biznes faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Germaniyada ijro ishlari Fuqarolik protsessual kodeksi (ZPO) asosida Gerichtsvollzieher instituti orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim shartnoma majburiyatlarining ishonchli bajarilishini ta'minlash orqali investitsiya muhitining jozibadorligini oshiradi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-26477>



AQShda ijro jarayonlari writ of execution mexanizmi orqali, shuningdek, federal marshal va sheriff xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Yaponiyada esa sud qarorlarining ijrosi milliy fuqarolik va protsessual qonunchilik asosida amalga oshiriladi hamda ushbu tizim milliy va xalqaro iqtisodiy munosabatlar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda Majburiy ijro byurosi sud qarorlarini real iqtisodiy natijaga aylantirish, debitor qarzlarni amaliy moliyaviy resurslarga transformatsiya qilish orqali tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda ushbu institut faoliyatining takomillashuvi biznes yuritish ishonchligini oshirish va iqtisodiy xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday qilib, rivojlangan davlatlar tajribasi va milliy amaliyot tahlili Majburiy ijro byurosi institutining tadbirkorlik faoliyatini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, ushbu institut shartnoma intizomini mustahkamlash, debitor qarzlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish va biznes faoliyati barqarorligini ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional omili sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institutsional ahamiyat 1-jadval asosida batafsil tahlil qilinadi.

1-jadval. Surxondaryo viloyati Majburiy ijro byurosi tomonidan kichik biznes subyektlari foydasiga ijro etilgan hujjatlar va undirilgan mablag'lar dinamikasi²

Yil	Ijro hujjatlari soni	Summa (mln so'm)	1 hujjatga o'rtacha to'g'ri keladigan summa (mln so'm)
2020	13 329	1 164 550,5	87,37
2021	25 319	2 009 863,3	79,38
2022	32 647	2 402 763,6	73,60
2023	47 227	3 189 742,7	67,54
2024	88 531	4 154 888,8	46,93
Jami	207 053	12 921 808,9	62,41

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Majburiy ijro byurosida kichik biznes subyektlariga oid ijro hujjatlari soni 2020–2024-yillar davomida yuqori sur'atlarda oshgan. Xususan, 2020-yildagi 13 329 ta hujjatdan 2024-yilda 88 531 taga yetib, sezilarli o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan ijro hujjatlari sonining qariyb 87,5 foizga ortgani ijro tizimi samaradorligi va tadbirkorlik subyektlari huquqlarini amaliy himoya qilish mexanizmlarining yanada faollashganini ko'rsatadi.

Kichik biznes subyektlari foydasiga undirilgan mablag'lar hajmida ham barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Jumladan, 2024-yilda undirilgan mablag'lar summasi 2023-yilga nisbatan taxminan 30,3 foizga oshgan. Bu esa Majburiy ijro byurosi faoliyatining iqtisodiy natijadorligi izchil ortib borayotganini va biznes manfaatlarini tiklash imkoniyatlari kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bir ijro hujjatiga to'g'ri keladigan o'rtacha undirilgan mablag' miqdorida nisbiy pasayish kuzatilgan. Xususan, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich o'rtacha 87,4 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 46,9 mln so'mga teng bo'lgan. Mazkur holat ijro amaliyotida kichik va o'rta miqdordagi iqtisodiy nizolar ulushining ortib borayotgani, ya'ni kichik biznes subyektlari manfaatlarini himoya qilish qamrovi kengayayotganini anglatadi.

Ushbu dinamik o'zgarishlar Majburiy ijro byurosi faoliyati tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xo'jalik munosabatlarida to'lov intizomini mustahkamlash hamda hududda sog'lom va barqaror biznes muhitini shakllantirishga xizmat qilayotgan muhim institutsional mexanizm ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va Yaponiya kabi davlatlarda sud qarorlarini ijro etish tizimlari fuqarolik protsessual mexanizmlari bilan uzviy integratsiyalashgan bo'lib, mulkiy huquqlarni ishonchli himoya qilish va xo'jalik munosabatlarida barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional asos vazifasini bajaradi. Ushbu tizimlar orqali tadbirkorlik subyektlari o'z huquqlarining amaliy himoyasi ta'minlanishiga ishonch hosil qiladi, bu esa umumiy biznes muhitining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda Majburiy ijro byurosining yagona markazlashgan institut sifatida faoliyat yuritishi sud qarorlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini ta'minlash orqali tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, ijro mexanizmlarining samarali ishlashi debitor qarzlarni undirish imkoniyatlarini kengaytirib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga

2 Муаллиф ҳисоб-китоби (Сурхондарё вилояти Мажбурий ижро бюроси маълумотлари асосида).

xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy munosabatlarda ishonch muhitini mustahkamlash va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Majburiy ijro byurosi faoliyatini yanada raqamlashtirish va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron monitoring hamda masofaviy boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish;
- ijro samaradorligini baholashda tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini tiklash darajasi, undirilgan mablag'lar hajmi va ijro muddatlari kabi ko'rsatkichlarga asoslangan tizimli baholash mexanizmlarini takomillashtirish;
- kichik biznes subyektlari uchun ijro jarayonlari bo'yicha axborot-maslahat xizmatlarini rivojlantirish orqali ularning huquqiy savodxonligini oshirish;
- rivojlangan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, sud va ijro tizimlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni yanada mustahkamlash.

Umuman olganda, samarali ijro tizimining mavjudligi milliy tadbirkorlik muhitining huquqiy barqarorligini ta'minlovchi muhim institutsional omil hisoblanadi. Har bir mamlakat o'zining huquqiy tizimi va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur mexanizmni takomillashtirib boradi. O'zbekistonda Majburiy ijro byurosi faoliyatining izchil rivojlanishi esa tadbirkorlikni institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash, biznes muhitining barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Kingdom Ministry of Justice. (2020). Enforcement of judgments in civil and commercial matters. London. Available at: <https://www.gov.uk/>
2. Hess, B. (Ed.). (2017). Recognition and enforcement of judgments: International comparative perspectives. Springer International Publishing.
3. Nishitani, Y. (2020). Enforcement of foreign judgments: Japan chapter. In: Enforcement of Foreign Judgments. Available at: <https://www.globalarbitrationreview.com/>
4. O'zbekiston Respublikasi Majburiy ijro byurosi. (2024). Rasmiy portal ma'lumotlari. Available at: <https://mib.uz>
5. IFIT. (2022). The entrepreneurship ecosystem in Uzbekistan. International Institute for Sustainable Development / IFIT Transitions. Available at: <https://www.iisd.org/>
6. Kurpayanidi, K. I. (2020). K probleme klassifikatsii institutsionalnykh mekhanizmov ekonomiki. Tashkent State University of Economics repository. Available at: <https://tsue.uz>
7. Leontieva, L. S., Ilin, A. B., & Sizova, Y. S. (2018). Institutional support of small and medium-sized businesses at various stages of development: Evidence from Russia. Revista ESPACIOS, 39(24).
8. Li, H., & Atuahene-Gima, K. (2001). Product innovation strategy and the performance of new technology ventures in China. Academy of Management Journal, 44(6), 1123–1134. <https://doi.org/10.2307/3069392>
9. Mahmudova, N. (2020). O'zbekistonda aholi tadbirkorligini rivojlantirish masalalari. InLibrary. Available at: <https://inlibrary.uz>
10. Sofia, I. (2021). Institutional approaches to support entrepreneurship in modern conditions. Journal of Entrepreneurship and Business Innovation, 8(1).
11. Stephan, U., Uhlaner, L. M., & Stride, C. (2015). Institutions and social entrepreneurship: The role of institutional voids, institutional support, and institutional configurations. Journal of International Business Studies, 46, 308–331. <https://doi.org/10.1057/jibs.2014.38>
12. Xiao, Z., et al. (2022). Institutional support and firms' entrepreneurial orientation. Long Range Planning, 55(4). <https://doi.org/10.1016/j.lrp.2021.102134>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100